XALQ DEPUTATLARI ZARBDOR TUMANI KENGASHI
QARORI

2023 - yil 3 - iyul VI-56-79-3-49-K/23 Zarbdor tuman hokimligi

Zarbdor tuman mahalliy byudjetining tasdiqlangan xarajatlar rejasiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 27-, 119-, 120-, 126-, 147-, 148- moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24- moddalariga muvofiq Zarbdor tuman mahalliy byudjeti parametrlarida byudjet taqsimlovchilariga ajratilgan mablag‘larning cheklangan miqdorlariga o‘zgartirish kiritish maqsadida Xalq deputatlari Zarbdor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Zarbdor tuman mahalliy byudjeti parametrlarida byudjet mablag‘lari oluvchilarga ajratilgan byudjet mablag‘lari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ilovaga asosan o‘zgartirish kiritilsin.

2. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Axmedov)ga mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman mahalliy byudjeti xarajatlari yoyilmalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, o‘zgartirish kiritilayotgan mablag‘larni tegishli byudjet tasniflarida ko‘zda tutish vazifasi topshirilsin.

3. Zarbdor tuman mahalliy byudjetidan mablag‘ bilan ta’minlanadigan byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, ajratilgan

mablag‘larning maqsadli ishlatilganligi to‘g‘risidagi hisobotlarni o‘z veb-saytlari va Xalq deputatlari Zarbdor tuman Kengashiga axborot taqdim etib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (F.Murodov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Q.Nurmatov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Z.Ruziyev**

Xalq deputatlari Zarbdor tuman
Kengashining
2023-yil 3-iyuldagi
VI-56-79-3-49-K/23-son qaroriga
1-ilova

Zarbdor tuman mahalliy budjeti parametrlarida budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning xarajatlari smetasiga kiritilayotgan o'zgartirishlar miqdori

№	Hudud nomi	Budjet mablag‘i taqsimlovchi nomi	Bo‘lim	Kichik bo‘lim	Bob	Kiritilgan o‘zgartirish (ming.so‘mda)	
1	Zarbdor tuman	Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	7091	100	72	-1 233 570	0
		Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	7092	100	72	0	928 000
		Tuman Yoshlar siyosati va sport bo'limi	7083	610	205	0	200 000
		Tuman Xokimligi	7011	204	18	0	50 000
		Tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi	7109	120	91	0	3 848
		Tuman iqtisodiyot va moliya bolimi	7013	908	222	0	14 265
		Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	7065	200	84	-24 541	0
		Tuman Tibbiyot birlashmasi	7073	101	54	0	50 000
		Tuman Madaniyat bolimi	7082	310	201	0	8 000
		Tuman Axborot kutubxona markazi	7082	102	134	0	3 998
		JAMI kiritilgan o'zgartirishlar	**x**	**x**	**x**	**-1 258 111**	**1 258 111**